

**TEMIROV FARRUX UMEDOVICH
XOLOVA UMIDA**

Bukhara State University
Uzbekistan

PUBLISHING AND LIBRARY ACTIVITIES OF THE TURKESTAN JADIDS

Annotation: In this article, the second half of the XIX century - the Jadid and Enlightenment movement in Turkestan in the early twentieth century, the activities of its famous representatives, progressive ideas, new methodological schools, the formation of the local press, Munavvarqori Abdurashidkhonov, Abdulla Avloni, Nizomiddin Khodjaev, Sadulla Tursun The publishing and library activities of famous Jadids such as Jajaev, the problems of Mahmudhoja Behbudi and his Behbudiya library have been scientifically analyzed.

Key words: Turkestan, Asia, Europe, Turan, Mirror, Revolution, Voice of Workers, Zarafshan, Hürriyet, Enlightenment, Jadid, Press, Guide, Textbook, Library Writer, Orientalist, Poet, Publicist, Journalist, Skilled Educator.

КНИГОИЗДАТЕЛЬСТВО И БИБЛИОТЕЧНАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ТУРКЕСТАНСКИХ ДЖАДИДОВ

Аннотация: В данной статье вторая половина XIX века - джадидское и просветительское движение в Туркестане в начале XX века, деятельность его известных представителей, прогрессивные идеи, новые методологические школы, становление местной печати, Мунавваркори Абдурашидхонов, Абдулла Авлони, Низомиддин Ходжаев, Садулла Турсун Научно проанализирована издательская и библиотечная деятельность таких известных джадидов, как Джаджаев, проблемы Махмудходжи Бехбуди и его библиотеки Бехбудия.

Ключевые слова: Туркестан, Азия, Европа, Туран, Зеркало, Революция, Голос трудящихся, Заравшан, Хюрриет, Просвещение, Джадид, Пресса, Путеводитель, Учебник, Библиотекарь, Востоковед, Поэт, Публицист, Журналист, Квалифицированный педагог.

TURKISTON JADID NAMOYONDALARINING KUTUBXONACHILIK FAOLIYATI

Annotatsiya: Ushbu maqolada XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Turkistonda vujudga kelgan jadidchilik va ma'rifatparvarlik harakati, uning mashhur namoyandalari faoliyati, taraqqiyatparvarlik g'oyalari, yangi usul maktablari, mahalliy matbuotchilikning shakllanishi, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Nizomiddin Xo'jaev, Sa'dulla Tursunxo'jaev kabi mashhur jadidlarning noshirchilik va kutubxonachilik faoliyatlarini, Mahmudxo'ja Behbudiy va uning "Behbudiya" kutubxonasi haqidagi muammolar ilmiy jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Turkiston, Osiyo, Yevropa, Turon, Oyna, Inqilob, Mehnatkashlar tovushi, Zarafshon, Hurriyat, Ma'rifatparvar, jadid, matbuot, qo'llanma, darslik, kutubxona yozuvchi, sharqshunos olim, shoir, publisist, jurnalist, mohir pedagog.

KIRISH (INTRODUCTION)

Dunyoning ilmiy tadqiqot markazlarida turkistonlik mutafakkir allomalarning ilm-fan taraqqiyotiga qo'shgan hissasi, XIX asrning oxiri – XX asr boshlarida musulmon mamlakatlari ijtimoiy-siyosiy hayoti, jadidchilik harakatining vujudga kelishi hamda jadid namoyandalarning ma'rifatparvarlik, yangi darslik-o'quv qo'llanmalar yaratish va nashr ettirish, kutubxonalar tashkil etish va mahalliy xalqni savodxon qilishni harakat qilgan milliy taraqqiyparvar ota-bobolarimizning o'rnak bo'luvchi ijtimoiy-madaniy faoliyatlari o'rganilmoqda.

XIX asr oxiri- XX asrning boshlarida siyosiy, madaniy, iqtisodiy jihatdan inqiroz xolatiga tushib qolgan musulmlarga tufayli rivojlanish past darajada bo'lgan o'lkada Turkiston ziyolilari chor Rossiyasining mustamlakachilik zulmidan qutulish, o'z milliy davlatchiligini tuzish, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotga yo'l ochish, xalqqa ziyo tarqatish choralari ko'rdi. Bu borada jadidchilik xarakati katta rol o'ynadi. Jadidchilik rus mustamlakachiligiga qarshi milliy demokratik xarakat bo'lib, u o'sha davr Turkistondagi qoloq iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sharoitda yashayotgan xalqlarni ma'rifatlashtirish, jamiyat xayotida ijtimoiy va madaniy isloxotlar o'tkazish, pirovardida milliy mustaqillik g'oyalari xayotga tadbiiq etish maqsadini o'z oldiga qo'ygan edi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI (LITERATURE REVIEW)

Jadidlarning xalq ma'rifati uchun kurash dasturi uch asosiy yo'nalishdan iborat bo'lgan: 1. Yangi usul maktablari tarmog'ini kengaytirish. 2. Umidli, iqtidorli yoshlarni chet elga o'qishga yuborish. 3. Turli ma'rifiy jamiyatlar tuzish xamda ziyolilarning kuchli firqasini tashkil etishga qaratilgan gazetalarni chop etish. Shu dasturni amalga oshirish borasida Maxmudxo'ja Bexbudiy, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov, Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev, Abdulla Avloniy, Abdulxamid Cho'lpon va boshqa ziyolilar jonbozlik ko'rsatishdi. Yangicha o'qitish musulmon bolalariga qisqa vaqt ichida dunyoviy, diniy ta'lim berish dasturi asosida olib borildi.

Bu dasturga ko'ra maktablarda o'qitish tizimi ikki bosqichdan iborat bo'lgan. Birinchi bosqich ibtidoiy qism deb atalib, uning taxsil muddati 4 yil bo'lgan. Birinchi bosqichni tugatgan shogird eski maktabda 10 yil o'qigandan ko'ra yaxshiroq savod chiqargan. Ikkinchi bosqichni muvaffaqiyatli tugatgan shogird arabcha, forsha, turkiy tilda bemalol so'zlashib, ruschada erkin gaplasha olar edilar. XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Turkistonda vujudga kelgan jadidchilik va ma'rifatparvarlik harakati, uning mashhur namoyandalari faoliyati, taraqqiyparvarlik g'oyalari, yangi usul maktablari, mahalliy matbuotchilikning shakllanishi, dolzarb bo'lib kelganligi uchun qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Mavzuga doir adabiyotlarni quyidagi guruhlariga bo'lib o'rganish mumkin:

1. XIX asrning oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda yaratilgan mahalliy manbalar va matbuot materiallari
2. Sovet davrida yaratilgan ilmiy tadqiqotlar.
3. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda nashr etilgan tadqiqotlar.
4. Xorijda yaratilgan tadqiqotlar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI (RESEARCH METHODOLOGY)

Tadqiqot ishi tarixiylik tamoyili, xronologik va qiyosiy tahlil usullariga tayanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR (ANALYSIS AND RESULTS)

Jadidchilarning asosiy yo'nalishi ta'lim tizimiga qaratilgan bo'lib, ular asosan ta'lim tizimini isloh qilish orqali jamiyatni rivojlantirishga harakat qilganlar. Xususan, jadidlarimiz millatning yashamog'i, taraqqiy topmog'i uchun, birinchi navbatda, ozod mustaqil bo'lmog'i lozimligini anglab yetdilar va keng xalqni uyg'otishga alohida e'tibor berdilar [1; 4]. Jadidchilik harakatlarida jadid maktablari ochishga, kutubxonachilikka asosiy e'tibor qaratilganini manbalar tasdiqlaydi.

Turkiston xalqining milliy qahramoni, jamoat, madaniyat vamaorif arbobi, birinchi o'zbek dramaturgi, milliy teatr muassisi, Mahmudxo'ja Behbudiy (1875 – 1919) nomi faqatgina Turkiston ziyolilariga emas, balki mamlakat sarhadlaridan oshib Osiyo va Yevropaning ko'pgina mamlakatlarida ham ma'lum va mashhur[2; 4]. Milliy madaniyatimiz tarixiga nazar tashlagan kishi barcha ma'rifatparvar podsholar saroyida kutubxonalar bo'lgani va shu kutubxonalarda o'zbek xalqining tarixi, dini va madaniyatiga oid noyob kitoblar saqlanganini yaxshi biladi. Ammo bu kutubxonalardan faqat saroy ahli va saroyga yaqin kishilargina foydalanib kelganlar.

XIX asr oxiri - XX asr boshlarida vujudga kelgan milliy uyg'onish harakati namoyandalari esa o'z oldilariga ayrim kishilarni emas, balki xalqni ma'rifatlashtirish maqsadini qo'yganlari tufayli yangi maktablar ochibgina qolmay, keng xalq ommasini uchun kutubxonalarni ham barpo etishga kirishdilar[3;26].

Mahmudxo'ja Behbudiyning ma'rifatga qo'shgan xizmatlaridan yana biri bu uning kutubxonasi bo'lib, u xalq orasida ma'rifatni yoyish maqsadida tashkil etgan edi. Behbudiy birinchi bo'lib ulamolar, olimlar oldiga Samarqandda musulmonlar kutubxonasi tashkil etish g'oyasini qo'ygan va ularni shu yo'lda birlashishga undagan. Bir muddat faoliyat ko'rsatgan va o'sha davrda katta shuhrat qozongan ushbu kutubxona haqida o'sha davrning yetakchi gazetasi bo'lgan Turkiston viloyati gazetasida xabar berilgan. «Turkiston viloyatining gazetasi» (Turkiston viloyati gazetasi)da Behbudiyning «Ob otkrytiye musulmanskoj biblioteki chitalnij v Samarqand – Mutolaaxona» («Samarqandda Mutolaaxona») nomli maqolasi e'lon qilingan. Birinchi navbatda kutubxona faoliyatini tashkil etish jamiyati tuziladi. Ushbu jamiyat a'zolari bir joyga to'planadi[4; 131]. Mahmudxo'ja Behbudiy «Oyna» jurnalida aytganidek: «Behbudiy kutubxonasi shahri Samarqand, Rusiya qit'asidagi haftalik «Oyna» majallasi idorasida, «Oyna» noshir va muharriri va Behbudiy kutubxonasi sohibi Mahmudxo'ja Behbudiyning o'z xonasida ochilur. Kutubxonada har nav va rangda kitob, jarida va kitobat uchun kulliyat ila qog'ozlar bugundan boshlab mavjuddir»[5; 14].

Behbudiy Samarqandda mutolaaxona ochish maqsadida “o'n ikki nafar muhtaram kishilar” – maslakdoshlari bilan birga 27 «bob» dan iborat dastur va nizom (ustav) tuzib, Samarqand shahrining harbiy gubernatoriga yo'llagan ekan. Mazkur dastur va nizom tasdiqlangach, mutolaaxonaning moddiy jihatlarini «mustahkamlash ishlari» yurishib ketadi. Avvalo mutolaani tashkil etish uchun maxsus jamiyat tuziladi [6; 26].

Jamiyatning birinchi yig'ilishi kutubxona xodimlarini tayinlaydi. Hozirgi a'zolar munosib qonun chiqaruvchi organ va bu sakkiz kishi asosiy assambleya qo'mitasi tomonidan saylangan. Rais etib muftiy Mahmudxo'ja Behbudiy saylandi. Hojiqul Muhammadov — rais o'rinbosari, tarjimon — Xo'qandboy Abdulxoliq o'g'li, muallim — Mirzo Xidirbek Abusaid o'g'li, savdogar — mulla Abdulsalom Abdulmo'min o'g'li, xazinachi — muallim, mulla Abdulqodir Abdulshukur o'g'li Hoji Said Ahmadning o'g'li. Manbaga ko'ra, deputatlar «ramazongacha kutubxona va qiroatxona ochishga va'da berishgan».

Xullas, mazkur yig'ilishda bayon qilingan fikr va mulohazalar asosida tuzilgan qaror (qonunnoma) harbiy gubernator general-mayor Galkinga taqdim etiladi va u qarorning asl nusxasi tagiga imzo

chekib, mutolaaxonaning ochilishiga ijozat beradi. Shundan keyin mutolaaxona 1908 yil 11 sentyabrda rasman ochiladi [7; 132].

Keyinchalik “Behbudiya” kutubxonasi nomi bilan mashhur bo‘lgan mutolaaxona ikki smenada (ertalab soat 9 dan 5 gacha va soat 6 dan 12 gacha) ishlab, 60 dan 110 nafargacha bo‘lgan kishilarga madaniy xizmat ko‘rsata boshlaydi. Behbudiyning «Samarqand kutubxona islomiyasi» («Turkiston viloyatining gazeti», 1908 – yil, noyabr) degan maqolasidan ma‘lum bo‘lishicha, kutubxona jamg‘armasida to‘plangan kitob va risolalar o‘sha kezlarda 600 ta, gazeta va jurnallar esa undan ham ko‘p bo‘lgan [8; 27]. Behbudiy tashabbusi bilan ochilgan ushbu kutubxona kundan-kunga rivojlanib bormoqda.

Behbudiy kutubxonaning maqsadini ta‘riflar ekan: “Kutubxonaning maqsadi musulmonlar qodir bo‘lgan puldan unumli foydalanishdir”, dedi. Keyinchalik kutubxona Behbudiy nomini oldi. Chunki uning moddiy xarajatlari asosan Behbudiy zimmasida edi.

Behbudiy kutubxonaning tashkilotchisigina emas, balkiundan o‘rin olgan aksar kitob va risollarning egasi ham edi. Vadud Mahmud Abduqodir Shakuriyga bag‘ishlangan maqolasida: «Behbudiy boy kutubxonaning egasi edi. 1000 jildlik kitob fondiga ega bo‘lgan bu mutolaaxon a barcha uchun doimo ochiq edi. O‘sha vaqtlarda bu kitoblarning har biri oltin bahosidahisoblanardi. Behbudiy bu joyning binosi va boshqa xarajatlarini o‘z cho‘ntagidan to‘lar edi», deb yozgan.

Kutubxonaga bo‘lgan e‘tiborning oshishi keyinchalik unda kitob savdosi bilan shug‘ullanish imkonini ham yaratdi. Behbudiy samarqandlik taraqqiyparvar kishilarning xorijda nashr etilgan va nashr etilayotgan kitoblarga bo‘lgan qiziqishlarini va ularning iltimoslarini e‘tiborga olib, Kavkaz, Qrim, Turkiya va boshqa mamlakatlarga sayohatga borganida, u yerdan kutubxona uchun kitoblar, “Oyna” jurnali uchun esa klishe‘lar olib kelishga ahd qildi. U «Qasdi safar»

sarlavhasi maqolasida shu haqida bunday deb yozgan edi: «Kutubxonai Behbudiya» isminda «Oyna» idorasina kitob savdosi ochmoq uchun ruxsat olingan.

Behbudiyning 1914 yil 29 may kuni boshlangan katta sayohati davomida Kavkaz, Qrim, Turkiya, Gresiya, Bolgariya, Avstriya va Germaniyaning turli shaharlarida bo‘ladi va bu shaharlardan «Behbudiya» kutubxonasi uchun juda ko‘p kitob va risolalarni olib keladi. Afsuski, «Behbudiya» kutubxonasining 1917 yildagi inqilobiy voqealardan keyingi taqdiri xususida matbuotda biror maqola yoki xotira e‘lon qilinmagan [9; 27].

O‘zbek madaniyati va adabiyotining asoschilaridan biri hisoblangan Abdulla Avloniy jadidchilikning yorqin namoyondalaridan biri edi. Abdulla Avloniy erk va ozodlikni har narsadan baland tutarkan, unga olib boradigan birdan – bir yo‘l deb ilm – ma‘rifatni bildi. Shu sabab Vatani, xalqi uchun zarracha manfaat yetkazishni o‘ylagan kishini ma‘rifatga da‘vat etdi. Ilm – ma‘rifat, ayniqsa Ovrupo madaniyatini ilhom bilan targ‘ib etdi [10; 270].

Shu yo‘lda Abdulla Avloniy bir qancha ma‘rifiy – ta‘limiy ishlarni amalga oshirdi. Jumladan, 1911 yil Toshkentdagi jadid taraqqiyparvarlari «Turon» sano‘i nafisa jamiyatini tashkil etib, uning nizom va dasturlarini qabul qiladi. «Turon» jamiyati faoliyatida Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Nizomiddin Xo‘jaev, Sa‘dulla Tursunxo‘jaev kabi ko‘plab taraqqiyparvarlar fidokorona faoliyat olib bordilar.

Xalq maorifini rivojlantirish, jadid maktablarini ochish, milliy matbuot hamda teatr san‘atini dunyoga keltirish, Vatan, millat ozodligi uchun kurash g‘oyalari ishlab chiqish jamiyat a‘zolarining asosiy maqsadiga aylandi [11]. «Turon» jamiyati dasturidagi eng muhim masalalardan biri – kutubxona va qiroatxona ochish edi. Jamiyat a‘zolari kutubxona uchun dastlab o‘zlarining shaxsiy kitoblari, sovg‘a

va ayrim kishilarning vaqf qilib qoldirgan kitoblarini jamlay boshlaydi. Jamiyat mablag'iga turk, tatar, ozarbojjon matbuoti gazeta, jurnallarini keltiradi. Yangilariga obuna bo'ladi.

1913 yil Abdulla Avloniy boshchiligida «Turon» teatr truppassi tuzilganligi e'lon qilindi va Toshkentning Eski shahar qismi Maxsido'zlik ko'chasi 25 binoda «Turon» kutubxonasi va qiroatxonasi ham ish boshladi. Ayniqsa, 1917 yil «Turon» jamiyat a'zolari –Munavvarqori Abdurashidxonov, Shokirjon Rahimiy, Yusuf Aliev, Abdulla Qodiriy, Fulom Zafariy, Cho'lpon, Mannon Uyg'ur kabi taraqqiyparvar ziyolilar xizmati bilan kutubxona faoliyati mislsiz kengaytiriladi. Natijada yaxshigina kitob xazinasiga ega kutubxona va qiroatxona paydo bo'ldi. Sho'rolar hokimiyatga kelgach «Turon» kutubxonasi mustaqil ommaviy kutubxona sifatida ish boshladi.

1918 yil Orif Keliblievning vafoti munosibati bilan Turkiston Komissarlar sho'rosi uning nomini abadiylashtirish maqsadida 10 ming so'm miqdorida sarmoya ajratadi. Bu pulning katta qismi «Turon» kutubxonasi uchun sarflanadi va kutubxona bir muddat Kilibliev sharafiga ochilgan «Turon kutubxonasi» deb nomlanadi. Kutubxona 1919 yilning 10 noyabridan yana «Turon» nomi bilan yuritilgan.

«Turon» kutubxonasi 1920yildanToshkentning Eski shahar maorif sho'basini hamda vaqf sho'basini qaramog'ida bo'lib, 1927 yilgacha uning devorlarida Muhammad Abduh, Ismoilbek G'aspirali, Jamoliddin Afg'oni, Rizouddin ibn Faxriddin, Muso Jorullo Begiev kabi Islom olamining buyuk ulamolari suratlari osilib turardi. Javonlar Sharqning eng nodir asarlari, dunyoning turli shaharlaridan kelgan kitoblar, gazeta va jurnallar bilan to'la edi [12].

Xulosa va takliflar

Turkiston jadid namoyondalarining kutubxonachilik faoliyatlaridan fikr-muloqazalarimizdan kuyidagi xulosalarга keliш mumkin: jadidlar mamlakatni rivojlantirishning asosiy yo'li sifatida ta'lim va maorif tizimida deb hisoblashgan. Shu yo'lda ular kutubxonachilik faoliyatiga alohida e'tibor qaratgan va shu yo'lda bir qancha islohotlarni ham amalga oshirishga muvaffaq bo'lishgan. Umuman olganda, asr bo'yi yuzaga kelgan jadidchilik harakati Turkiston xalqlarining milliy ozodlik, mustaqillik uchun dastlab chor Rossiyasi, sungra sovet mustamlakachiligiga qarshi kurashda muhim urun tutadi.

Chiqarilgan va aniqlangan muammolar yuzasidan quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

- Behbudiya kutubxonasi va Abdulla Avloniyning Turon kutubxonasi haqida kengroq malumot berilib, shunga doir kuplab maqolalar chop etish;
- Behbudiyning Oina jurnalidagi bazi maqolalari tarjima qilinsa va kutubxonachilik faoliyatidagi nizomlardan hozirgi kundagi kutubxonalarga joriy qilish;
- Avloniy va Behbudiylarning ilmiy-manaviy va marifatparvarlik faoliyatini yorituvchi hujjatli film yaratish maqsadga muvofiq/

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Қосимов Б. Миллий уйғониш: Жасорат, Маърифат, Фидойилик. Т- Маънавият, 2002.
2. Бехбудий М. Танланган асарлар. Ж. 1. - Тошкент: Академнашр, 2018.
3. Каримов. Н. Махмудхўжа Бехбудий. Т - Тошкент – 2010.
4. International Journal on Integrated Education Volume 4, Issue 6, June 2021
5. Бехбудий М. Танланган асарлар. Ж. 2. - Тошкент: Академнашр, 2018.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage

Volume: 2 Issue: 01 | 2022

ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314

<http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich>

6. Каримов. Н. Махмудхўжа Бехбудий. Т - Тошкент – 2010.
7. International Journal on Integrated Education Volume 4, Issue 6, June 2021
8. Каримов. Н. Махмудхўжа Бехбудий. Т - Тошкент – 2010.
9. Каримов. Н. Махмудхўжа Бехбудий. Т - Тошкент – 2010.
10. Қосимов Б. Миллий уйғониш: Жасорат, Маърифат, Фидойилик. Т - Маънавият, 2002.
11. <https://tarjumon.uz/> Irzaev. В. “Turon”ning uzoq yo'li.
12. <https://tarjumon.uz/> Irzaev. В. “Turon”ning uzoq yo'li.